

FRONT ORTIDAGI MA'RIFAT: IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI FAOLIYATI.

Azizov Umidjon Faxriddin o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

Tarix fakulteti magistranti.

azizovumid0477@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19241489>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1941-1945 yillarda Samarqand davlat universiteti (o'sha davrdagi O'zbekiston davlat universiteti) hayoti, front ortidagi faoliyati, evakuatsiya qilingan ilmiy muassasalar bilan hamkorligi va urush davri qiyinchiliklariga qaramay saqlab qolingan ilmiy salohiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: SamDU, evakuatsiya, front orti, O'zDU, oliy ta'lim, ilmiy tadqiqot, urush davri, ilmiy hamkorlik, kadrlar tayyorlash.

ПРОСВЕЩЕНИЕ В ТЫЛУ: ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.

Аннотация. В данной статье анализируется жизнь Самаркандского государственного университета (в тот период — Узбекского государственного университета) в 1941–1945 годах, его деятельность в тылу, сотрудничество с эвакуированными научными учреждениями и сохранение научного потенциала, несмотря на трудности военного времени.

Ключевые слова: СамГУ, эвакуация, тыл, УзГУ, высшее образование, научные исследования, военный период, научное сотрудничество, подготовка кадров.

ENLIGHTENMENT IN THE REAR: THE ACTIVITIES OF SAMARKAND STATE UNIVERSITY DURING THE YEARS OF WORLD WAR II.

Abstract. This article analyzes the life and activities of Samarkand State University (then known as the Uzbek State University) between 1941 and 1945. It examines its operations in the rear, collaboration with evacuated scientific institutions, and the preservation of scientific potential despite the immense hardships of the wartime period.

Keywords: SamSU, evacuation, the rear, UzSU, higher education, scientific research, wartime period, scientific cooperation, personnel training.

Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun misli ko'rilmagan sinov davri bo'ldi. Samarqand davlat universiteti (o'sha yillari O'zbekiston davlat universiteti – O'zDU deb yuritilgan) front uchun mutaxassislar tayyorlash va ilmiy izlanishlarni harbiy maqsadlarga yo'naltirishda markaziy o'rinni egalladi. O'zbek xalqi qatori oliy o'quv yurtlari xodimlari va talabalar ham Ikkinchi jahon urushida faol ishtirok etdilar. Vatan himoyachilarining jangovar safiga vatan himoyasi uchun O'zbekiston oliy maktablarining ko'p ming kishilik jamoasi ham qo'shildi.

Urushning ikkinchi kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston davlat universiteti talabalari, professor-o'qituvchilar tarkibi va barcha xodimlarining mitingida universitet jamoasi barcha kuch-g'ayratini Armiyaga yordam ko'rsatishga yo'naltirishga, g'alabani tezlashtirishga hissa qo'shish uchun fidokorona mehnat qilishga qasamyod qildi.

Mitingda qabul qilingan rezolyutsiyada shunday deyilgan edi: «Biz har daqiqada kitobni pulemyot va miltiqqa almashishga tayyormiz. Orqa frontimiz har qachongidan ham mustahkam bo'lishi uchun bor g'ayrat va uyushqoqlik bilan mehnat qilamiz»¹.

Dastlabki kunlardan oq Universitet bitiruvchilari, talabalar qizg'in vatanparvarlik tuyg'ularini ifoda etib, armiya jangchilari safiga yozilishni so'rashgan. Urushning dastlabki oylarida O'zbekistonda tuzilgan bo'linma va qo'shinlar tarkibida universitetning 500 nafardan ortiq talaba-yoshlari, ko'plab olimlari va xodimlari frontga jo'natilgan edi.² Urush mamlakat ichkarisidagi har bir harakatni urush manfaatlariga moslashtirishni talab etardi, urush davrida oliy maktabning ko'plab binolari gospitalar va harbiy qismlarga berildi. Shu munosabat bilan mashg'ulotlar 2-3 smenada, juda o'g'ir sharoitlarda olib borildi. Samarqanddagi yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lgan O'zbekiston davlat universiteti 1941 yilning 30 oktabridan Hukumat qarori bilan O'rta Osiyo davlat universiteti bilan vaqtincha birlashtirildi³. Bu qarorga urush davridagi og'ir vaziyat, birinchi navbatda, 18 ta oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari Samarqandga evakuatsiya qilingani, jumladan, 7 ta harbiy akademianing ko'chirilganligi, qolaversa ular uchun kerakli bino va inshootlarning yetishmasligi, shuningdek universitet talabalari sonining urush sababli keskin qisqarishi kabi omillar sabab bo'ldi.

Harbiy vaziyat o'quv dasturlari va o'rganilayotgan fanlar mazmunini ham qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Universitetning bir qancha fakultetlarida urush manfaatlariga xizmat qiluvchi yangi fanlar joriy etildi. Gumanitar fakultetlarda SSSR tarixini o'rganish jarayonida asosiy e'tibor mamlakatimiz xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan ozodlik urushlariga qaratildi. Misol uchun, Sadridin Ayniyning Muqanna qo'zg'oloniga bag'ishlangan "Muqanna" qissasi ham aynan shu davrda yaratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimiz orasida vatanparvarlik hissini kuchaytirish, vatanimiz tarixida bosqinchilarga qarshi kurashgan yirik qahramonlar borligini ko'rsatish va shu orqali o'zbek xalqini urush domiga ko'proq tortish ko'zlangan edi. Qolaversa, urush yillarida Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga oid ko'plab tadqiqotlar qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Universitetning O'rta Osiyo davlat universiteti bilan birlashuvi ham ilmiy tadqiqot ishlarining to'xtab qolishiga sabab bo'la olmadi. Ushbu birlashuv natijasida universitet o'qituvchi va xodimlarining hammasi ham O'rta Osiyo davlat universitetida faoliyatini davom ettira olmadi, ularning ba'zilari Samarqanddagi o'quv yurtlari va texnikumlarda o'z faoliyatini davom ettirdi.

Samarqand o'qituvchilar institutida faoliyatini davom ettirgan faylasuf olim I.M.Mo'minov "Mirzo Bedilning hayoti va falsafiy qarashlari" to'g'risida asar yozdi. Tarixchi I.I.Umnyakov esa "Toxarlar va toxarlar masalasi" nomli maqolasini, V.A.Abdullaev esa Xorazm shoirlarining adabiy merosi va Alisher Navoiy va uning faoliyati haqida ko'plab ilmiy maqolalar yozdi⁴.

Urush yillarida O'zbekiston davlat universitetining ko'plab tarbiyalanuvchilari talabalar va o'qituvchilar frontlarda mardlik va qahramonlik namunalarini ko'rsatib, jasorat bilan jang qildilar.

¹ Самаркандский государственный университет. Краткий исторический очерк (1927-1987). – Ташкент: Фан, 1990. – С. 36.

² Mamarasulov D. "Samarqand Davlat universitetining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari" nomzodlik disertatsiyasi. – Samarqand, 2023. – B. 77.

³ Тўракулов Б. Самарқанд давлат университети тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, 2017. – Б. 35.

⁴ Mamarasulov D. "Samarqand Davlat universitetining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari" nomzodlik disertatsiyasi. – Samarqand, 2023. – B. 79.

Dneprdan o'tish chog'ida O'zDU tarix fakulteti talabasi, kapitan Boris Stanislavovich Narbut yuksak jasorat ko'rsatdi. U o'z bo'linmasi bilan birinchilardan bo'lib Dneprning g'arbiy qirg'og'iga tushdi va ushbu hududni uch kun davomida ushlab turdi. qo'shimcha kuch sifatida B. S. Narbut bo'linmasi dushman mudofaasini yorib o'tib, Ukraina yerlarini ozod qilish uchun shiddat bilan olg'a intildi. Ko'rsatgan qahramonligi uchun B. S. Narbutga Sovet Ittifoqi Qahramoni yuksak unvoni berildi⁵.

Sovet Armiyasi polkovnik-leytenanti (podpolkovnik), O'zGU tarix fakultetining sobiq dekani, dotsent S. V. Simonov frontlarda askarlar va ofitserlar orasida keng ko'lamli ommaviy-tashviqot ishlarini olib bordi. U sovet jangchilarining qahramonona kurashlari haqidagi hikoyalari bilan askarlarni yangi jasoratlarga ruhlantirdi. Vatan oldidagi xizmatlari uchun S. V. Simonov bir qancha orden va medallar bilan taqdirlandi.

XV asrning 60-yillarida Mirzo Ulug'bek madrasasida tahsil olgan shoir, faylasuf va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan 1941-yilda O'zbekiston davlat universitetiga ulug' allomaning nomi berilgan edi⁶. O'zbekiston Davlat universiteti faoliyatini qayta tiklash to'g'risida 1944-yil 25-fevralda hukumat qarori qabul qilinadi. Olib borilgan tashkiliy ishlar natijasida 1-oktabdan universitetda dars mashg'ulotlari qaytadan boshlanadi. 1-oktyabrdan universitetning beshta fakultetida: tarix, fizika-matematika, geologiya-tuproqshunoslik, biologiya, filologiya fakultetlarida hamda 23 ta kafedrada o'quv mashg'ulotlari boshlandi⁷. O'quv mashg'ulotlari boshlangan vaqtda O'zbekiston davlat universitetida (O'zDU) 426 nafar talaba tahsil olar edi, ularning 45 foizini mahalliy millat vakillari tashkil etgan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki talabalar soni asosan 1-kursga qabul qilinganlar va urush natijasida o'qishini qayta tiklagan yuqori kurs talabalari hisobiga shakllantirilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillari Samarqand davlat universiteti (o'sha davrdagi O'zbekiston davlat universiteti) faoliyati O'zbekiston oliy ta'lim tizimi tarixida o'ziga xos va murakkab bosqichni tashkil etdi. Urushning dastlabki kunlaridanoq universitet jamoasi front va front orti ehtiyojlariga moslashib, o'z faoliyatini Vatan mudofaasi manfaatlariga bo'ysundirdi. Professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar nafaqat jang maydonlarida, balki ilm-fan va ta'lim frontida ham fidokorona xizmat qildilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Самаркандский государственный университет. Краткий исторический очерк (1927-1987). – Ташкент. “ФАН”. 1990. – 246 с.
2. Самарканд тарихи. Биринчи том. “ФАН”. Тошкент, 1971. – 481 б.
3. Mamarasulov D. “Samarqand Davlat universitetining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari” nomzodlik disertatsiyasi. – Samarqand, 2023. – B. 216.
4. Тўракулов Б. Самарканд давлат университети тарихидан лавҳалар. –Самарқанд. 2017. – 64 б.
5. <https://samdu.uz>

⁵Самаркандский государственный университет. Краткий исторический очерк (1927-1987). – Ташкент: Фан, 1990. – С. 43.

⁶ <https://Samdu.uz>

⁷ Самаркандский государственный университет. Краткий исторический очерк (1927-1987). ... – С. 41.